

Uzbekistan Airways rahbariyati bilan ochiq muloqotga qo'shiling!

2024 24 Sentabr

Aviakompaniya faoliyati bilan bog'liq masalalarni tezkorlik bilan hal etish va joylarda fuqarolarning murojaatlari uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, joriy yilning 25-sentabr kuni Uzbekistan Airways Qo'qon shahrida sayyor qabul tashkil etadi.

Sayyor qabulda ishtirok etish istagini bildirganlarni soat 12:00 da Turon ko'chasi, 1-uy manzilida joylashgan Qo'qon shahar hokimligiga taklif qilamiz.

Batafsil ma'lumot uchun +998781404520 raqamiga murojaat qiling.